

## THE VIEWS OF AHMED YASSAVI ON SPIRITUAL EDUCATION

Marg'uba Mirqosimova

*International Islamic Academy of Uzbekistan*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/iiau>



Part of the [Arts and Humanities Commons](#)

---

### Recommended Citation

Mirqosimova, Marg'uba () "THE VIEWS OF AHMED YASSAVI ON SPIRITUAL EDUCATION," *The Light of Islam*: Vol. 2019 : Iss. 1 , Article 10.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/iiau/vol2019/iss1/10>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in The Light of Islam by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [brownman91@mail.ru](mailto:brownman91@mail.ru).

**AHMAD YASSAVIYNING E'TIQOD  
TARBIYASI HAQIDAGI QARASHLARI**

**ВЗГЛЯДЫ АХМАДА ЯССАВИ О  
ДУХОВНОЙ ВОСПИТАНИИ**

**THE VIEWS OF AHMED YASSAVI ON  
SPIRITUAL EDUCATION**

***Kalit so'zlar:** diniy e'tiqod, immanent (ichki sabab) nazariyasi, diniy tolerantlik, irratsional (aql dan tashqari, aql yetmaydigan) holat, so'fiylik ta'limoti, aqliy va axloqiy tarbiya, kamolot bosqichlari, oriflik darajasi.*

***Ключевые слова:** религиозное убеждение, теория имманентности, религиозное толерантство, иррациональное состояние, учение суфизма, умственное и моральное воспитание, уровень совершенствование.*

***Key words:** religious conviction, immanence theory, religious tolerance, irrational state, the teachings of Sufism, mental and moral education, the level of improvement.*

Shaxsda diniy e'tiqodning qay tariqa shakllanishi haqida turlicha talqinlar mavjud. Muqaddas Qur'oni karimning "A'rof" surasi 172–173-oyatlarida shunday deyilgan: «**Rabbingiz Odam o'g'illari-ning bellari (pushti kamarlari) dan zurriyotlari (ruhlarini) olib, ularni o'zlariga guvoh qilib turib: «Men Rabbingiz emasmanmi?» (dedi). (Ular): «Yo'g'e! (Rabbimizsan!) Guvohlik berdik», – dedilar. Qiyomat kuni: «Biz bundan g'ofil (bexabar) edik» yoki, «Oldindan ota-bobolarimiz mushrik bo'lganlar. Biz ulardan keyin kelgan zurriyot edik. (O'sha) nohaq kishilarning fe'llari sababli bizni halok qilasanmi?» – deyishlarini (bilganimiz uchun shunday qildik).**

Ushbu oyatlarni Shayx Abdulaziz Mansur shunday sharhlaydi: «Allohning ruhlar bilan mana shu gaplashuvini «Al-Miqyos» deyiladi. Miqyos – ahdlashuv. Bu ahdlashuvning hikmatlaridan biri shuki, qiyomat kuni mushriklar: «Biz Allohning yagonaligini va bizning ham rabbimiz ekanini bilmay, ota-bobolarimiz kabi mushrik holda o'tibmiz. Ularning xatosiga bizlarni sherik qilasanmi? – deyishi mumkin bo'lgan da'vosiga javoban Alloh taolo mazkur oyat orqali o'sha ahdlashuv jarayonini eslatib qo'yimoqda» [4:105–106].

Bu oyatlar «Din psixologiyasi» fanida mavjud diniy e'tiqod bilan bog'liq immanent (ichki sabab)

nazariyasi bilan hamohanglik kasb etadi. Unga ko'ra, diniy e'tiqod individ ruhiyatida azaldan mavjud bo'lib, ilohiy yo'l bilan berilgan. Shuningdek, nemis mutafakkiri Rudolf Ottoning fikricha, diniy e'tiqod odamning o'z Yaratuvchisi bilan uchrashuvi asosida bo'lib, bu uchrashuv uning ruhida irratsional (aqlidan tashqari, aql yetmaydigan) holatda sodir bo'ladi va unga mos ravishda, diniy kechinmalar yuzaga keladi [3:32].

Demak, diniy e'tiqod insonning qalbida, ruhoniyatida yashaydi. Uilyam Jeymis aytganidek: «Diniy tajriba tolerant ma'noga ega bo'lib, kishi qaysi millat, e'tiqod shakliga mansubligidan qat'i nazar, bunday tajriba har bir insonning eng teran mohiyatida mavjud. Faqat turli insonlar uni turlicha amalga oshiradilar: kimdir unga juda sezgir, xushyor bo'ladi, kimningdir sezgirligi kamroq bo'ladi, kimdir umuman ko'r, kar, sezmas bo'ladi» [3:74].

Ma'lumki, tarbiya turlaridan bo'lgan namuna tarbiyasi orqali oilada ota-ona farzandlarining diniy e'tiqod egasi sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. «E'tiqod tushunchasi yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda muhim o'rin tutadi. Bunda tarbiyachi o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanib ularning ongiga, hissiyotlariga ta'sir qiladi. Shu yo'l bilan yoshlarda ijobiy axloqiy sifatlar tarkib topa boradi hamda mustahkamlanadi. Ulardagi salbiy xulq-odatlar yo'qotiladi. O'quvchilarda e'tiqod hosil qilish jarayonida etikaga oid tushunchalar ham tarkib topib boradi. E'tiqod tarbiyasini amalga oshirishda har bir o'quvchining qiziqish doirasini, maylini, fikr-o'yini diqqat bilan o'rganish talab etiladi» [2:3]. Xoja Ahmad Yassaviy so'fiylik ta'limotining aksariyat qismi imon-e'tiqod tarbiyasiga bag'ishlangan. Unda 40 ta maqom ko'rsatilgan bo'lib, ulardan 10 ta maqomi logut, ya'ni ma'rifat va ilm olishga qaratilgan yo'l. Insonning aqliy jihatdan tarbiyalanishi ma'rifat maqomiga olib boradi; ilm insonda aql va tafakkur shakllanishining poydevori ekanligini; bu maqom insonning axloqiy shakllanishini ham o'z ichiga qamrab olishini tushuntiradi. Shuningdek, insonning aqliy tarbiyasi bilan axloqiy shakllanish jarayonlari o'zaro uzviy bog'liqlikda talqin etilganligi bugungi tarbiya tamoyillariga mohiyatan mos tushadi. Ilm-ma'rifatga bag'ishlangan o'n maqom quyidagicha izohlanadi:

«Ma'rifat bu avvalo fano bo'lmoq,  
Ikkinchi – darveshlikni qabul qilmoq,  
Uchinchi – har ishga tahammul qilmoq,  
To'rtinchi – haloli tayyib talab qilmoq,  
Beshinchi – ma'rifat qilmoq,

Maqolada Ahmad Yassaviyning barkamol insonni shakllantirishga oid tarbiyaviy qarashlari bilan e'tiqod tarbiyasi haqidagi g'oyalari «Hikmatlar» to'plami asosida yoritilgan.

В статье на примере «Хикматлар» (Наставления, заветы) освещены взгляды Ахмада Яссави о духовном воспитании, воспитании веры и воли, которые способствуют формированию гармонично развитой личности.

The article investigates the views of Ahmad Yassavi about spiritual education, education of faith and will, which contribute to the formation of a harmoniously developed personality on the example of "Hikmatlar" (precept, covenants)

Oltinchi – shariat va tariqatni barpo tutmoq,  
Yettinchi – dunyoni tark qilmoq,  
Sakkizinchi – oxiratni ixtiyor qilmoq,  
To'qqizinchi – vujud maqomini bilmoq,  
O'ninchi – haqiqat asrorini bilmoq turar».

Xoja Ahmad Yassaviyning «Ma'rifat bu avvalo fano bo'lmoq» talqini birinchi maqomda inson o'tkinchi dunyo hoy-u havaslaridan kechib, fanoga yuz tutishini anglatadi. Har bir insonning nafsu hirslardan tozalangan musaffo yuragida ilm olishga ehtiros, ijod qilishga ishtiyoq uyg'onadi. Shu sababdan Yassaviy insonning ma'rifat manzilida Allohni tanish mohiyatini to'la anglab ilmu axloqda komillikka yetishish, binobarin, bu maqomda oriflik darajasiga ham ko'tarilish imkoniyatlari mavjud ekani ta'kidlanadi. Inson hayoti davomida kamolot sari murakkab yo'lni bosib o'tadi va o'zidan yaxshi yoki yomon nom qoldiradi.

So'fiylikning ikkinchi maqomi «darveshlikni qabul qilmoq» deb ta'riflanadi. Yassaviy darveshlik maqomining qirq turini ko'rsatib, agar ularga to'g'ri amal qilinsa, darveshlik pok turur va agar bilmasa, o'rganmasa, darveshlik maqomi unga harom va johil turur, deydi. Bu qirq maqomdan o'ntasi shariatda, o'ntasi tariqatda, o'ntasi ma'rifatda turur va keyingi o'ntasi haqiqatda turur, deb har biriga nisbatan o'zining munosabatini bayon qilib, ularni bajarishning o'n yo'lini ko'rsatadi. Ushbu maqomda «darveshlikni qabul qilish» dunyo noz-ne'matlari-yu lazatlaridan kechish orqali kishi nopok, nodon, zulmkor, molparast, mansabparastlik illatlaridan xalos bo'lib boradi, o'zini baxtsizlik va g'urbatga yo'llovchi yo'ldan tiyiladi.

Uchinchi maqomdagi «har ishga tahammul qilmoq», ya'ni bu so'zdagi «tahammul qilmoq» tushunchasi «bardosh bermoq», «sabr-toqat bilan kutmoq» ma'nolarini ifodalab, komillik sari yo'lning

mashaqqatli, sinovlarga to'la ekanligini anglatadi. Demak, bu yo'lda kishidan sabr-bardoshli bo'lish talab qilinadi.

To'rtinchi maqom «haloli tayyib talab qilmoq» deb nomlangan bo'lib, bunda kishi halol deb hisoblangan narsalardan tanovul qilishi, o'zini gunoh ishlardan tiyib, halol turmush kechirishi, o'zgarar mol-dunyosiga ko'z tikmasligi, o'tkinchi dunyoga mehr qo'ymasligi, halol bilan haromni ajrata olishi, halollik, poklik va adolat kabi xususiyatlarni jismiga singdirishi lozim.

Beshinchi maqom «ma'rifat qilmoq» deb yuritilib, bunda insonning komillikka erishuvi ilm orqali ekanligi to'g'risida fikr yuritiladi. Xoja Ahmad Yassaviy Muhammad (s.a.v.) payg'ambarimizning «Ilm egallang, ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir», degan hadisiga amal qilgan. Darhaqiqat, inson faqat ilm qudrati bilangina o'tkinchi dunyoning yolg'onchi huzurlari aslida hech nima emasligini tushunib yetadi, ulardan voz kechish orqali yomon yo'llarga undovchi nafs qopqonidan o'zini xalos qilishga erishadi, ma'naviy kuch-qudratga ham ilm orqali erishadi.

Oltinchi «shariat va tariqatni barpo tutmoq» maqomida inson musulmonchilikning barcha qonun-qoidalarini o'rganib, o'zlashtirib, ularga rioya qilishi, undagi barcha farz qilingan amallarni bajarishi, o'zini gunohlardan saqlashi, man qilingan ishlardan tiyishi, g'araz va yomonliklardan tozalashi, o'ziga berilgan ne'matlar uchun shukronalar qilib yashashi va yolg'iz Allohga sig'inishi lozimligi uqtiliradi.

Yettinchi maqom «dunyoni tark qilmoq» deb ko'rsatilib, bunda yolg'onchi dunyo lazzatlaridan voz kechish, kamtarona hayot kechirish g'oyalari ilgari suriladi. Shuningdek, insonni baxtsizlikka eltuvchi nafsni yengishga, tamagirlik va g'arazgo'ylik kabi illatlardan yiroq bo'lishga undaladi. Kamtarona hayot inson ruhini xotirjam qilib, uni tetiklashtiradi.

Sakkizinchi maqom «oxiratni ixtiyor qilmoq» deb nomlangan bo'lib, unda bu o'tkinchi dunyodagi barcha narsalar yolg'onchi «noz-ne'matlar» ekanligi, oxirat dunyosigina abadiy ekanligi tushuntiriladi. Bu dunyoda har birimizga in'om etiladigan mol-dunyo, uy-joy, martaba, mansab va hatto farzandlar ham bizga quvonch bag'ishlab, qalbimizni aldab, imondan chiqaruvchi vositalar sifatida talqin qilinadi. Shu sababdan Yassaviy ta'limotida kishining oxirat haqida ko'p

o'ylashi, qayg'urishi, oxiratni ixtiyor etishi uni abadiy baxt-saodatga eltadi, deb e'tirof etiladi.

To'qqizinchi maqomda «vujud maqomini bilmok» talablari yoritiladi. Unda kishi vujudini, tanasini boshqara olishi, uni turli xil ofatlardan saqlashi lozimligi uqdiriladi. Vaqtida uxlash uning miya faoliyatini yaxshilashi, nafsiga ortiqcha ruju qo'ymasdan, kam yeb-ichishi ichki kasalliklarning oldini olishi; kamtarona – oddiy kiyinish esa uni turli tana kasalliklari asoratidan saqlashi; tilovat va ibodat qilish orqali inson ham jismoniy ham gigienik tarbiyalanishi bayon qilinadi.

O'ninchi maqomda «haqiqat asrorini bilmok turar» deb belgilangan bo'lib, bunda yuqorida aytib o'tilgan maqomlarning barchasini to'la egallagan kishi yetuk, komil shaxs bo'lib shakllanishi bilan birga uning ruhan poklanish bosqichlaridan o'tganligi anglashiladi. Ayni darajaga erishgandagina inson Haqqa yetishishi, Alloh bilan bevosita muloqot qilish sharafiga muyassar bo'lishligi uqdiriladi. Manbalarda ko'rsatilishicha, mazkur maqomlarga to'la amal qilganlar orasida ko'plab valiylar, anbiyo-avliyolar bo'lgan. Ahmad Yassaviy ham ular safida turib odamlarni komillikka da'vat etish bilan birga kamolotga erishish yo'llarini talqin etgan. Xususan, Xoja Ahmad Yassaviy qarashlarining yana bir jihati tarkidunyochilik, ya'ni gunoh, nuqson, kamchiliklarni tark etish aqidasi. Bunda ikkita g'oya – yaxshi fazilatlarini takomillastirish va nuqsonlarni tark etish bir-birlarini to'ldiradi. Har bir kishi umri davomida xatolarga yo'l qo'yishi tabiiy. Xoja Ahmad Yassaviy o'z xatolarini tuzatishning birdan bir yo'li – tavba qilish, o'z xatosini o'zi tuzatishga intilish, o'zini-o'zi qayta tarbiyalash, o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lish, deb tushuntiradi va o'zi ham umri davomida shu talablarga amal qilib yashagan. Xoja Ahmad Yassaviy odob bir daraxt bo'lsa, hayo uning mevasidir, deb ko'rsatadi. Agar inson takabburlik bilan o'zgaralarga munosabatda bo'lar ekan, undagi saxovat, odob, axloq, hayo chiroqlari o'chadi, deya quyidagilarni bayon qiladi:

Ulug' - kichik yoronlardin odob ketti,  
Qizu za'if juvonlardin hayo ketti,  
«Alhayou min al-imon» deb Rasul aytti  
Hayosiz qavm ajoyiblar bo'ldi, do'stlar [1:62].

«Xoja Ahmad Yassaviy tariqati so'fiylik ta'limotining bir bo'laki sifatida Allohga shak keltirmaslikka, insonni baxtsizlikka eltuvchi nafsni yengishga, zaif, beva-bechoralarga yordam berishga undaydi; xalqni,

hukmdorlarni iymon-e'tiqodga, insof-diyonatga, mardlikka da'vat qiladi. Shu bilan birgalikda Yassaviylik ta'limotida dunyo lazzatlaridan voz kechish, kamtarona hayot g'oyalari olg'a surilgan. Xoja Ahmad Yassaviy o'z e'tiqodiga umrining oxirigacha amal qilib yashagan», – deb fikr bildirgan soha tadqiqotchilaridan M.Hajiyeva [2:32].

Xoja Ahmad Yassaviy insonning kamolotga erishuvi faqat bilim va ma'rifati orqali yuz beradi, deb hisoblaydi:

Ma'rifatni manbaiga minmaguncha,  
Shariatni ishlarini bilsa bo'lmas,  
Shariatni ishlarini ado qilmay,  
Tariqatni maydoniga kirsan bo'lmas [1:108].

Ushbu to'rtlikda esa oqillik alomatlariga diqqatimiz qaratiladi:

Oqil ersang, g'ariblarni ko'nglin ovlav,  
Mustafodek elni kezib, yettim qovlo,  
Dunyoparast, nojinslardan bo'yun tovlav,  
Bo'yun tovlav, daryo bo'lub toshtim mano.

Oqil, komil inson g'ariblar ko'nglini ovlav, ularga mehr-muruvvat ko'rsatadi; payg'ambarimiz kabi elparvar bo'ladi. Dunyoparast, boylikka ruju qo'ygan, nafs balosi domiga tushgan nojinslardan nari bo'lishga undaydi. Bunday odamlar kirdikorlaridan «daryo bo'lib toshgan»ligini ta'kidlaydi.

«Do'stlarimni rasvo qilg'an nafsi havu,

Oning uchun shayton la'in qilur g'avg'o», – deya afsus-nadomat chekadi [1:47].

Xoja Ahmad Yassaviy barkamol shaxs bo'lib yetishishning qator shartlarini bayon qildan:

– Yaxshi fazilatlarni egallash; har jihatdan pok yashashga intilish;

– Ichki olamini ma'rifati nuri bilan to'ldirish;

– Har qanday vaziyatda o'zini tuta bilish; gunohdan pok bo'lish;

– Hamisha o'zini nazorat qilish, gunoh ishlardan tiyilish;

– Allohga muhabbat bilan yashash, xalqni esa Allohning bandalari deb bilish va muruvvatli bo'lish;

– O'tkinchi dunyo hoy-u havaslaridan ko'ngil uzib, nafs balosidan xalos bo'lishga erishish;

– Hamisha o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lib, o'zligini yuksaltirib borish, gunohlardan forig' bo'lishga intilish.

So'fiylik maqomiga erishish bobidagi Yassaviy qarashlari bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Ayniqsa, ta'lim-tarbiya tizimida Xoja Ahmad

Yassaviyning «Rasoil», «Faqrnoma», «Devoni hikmat» asarlaridagi diniy va dunyoviy bilimlarga oid hikmatlardan foydalanish o'quvchi va talabalarni aqliy va axloqiy tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni kuchli e'tiqod egasi, komil inson sifatida shakllanishlarida muhim manba vazifasini o'taydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. T.: 1992.
2. Hajiyeva M. Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. T.:2004. 32-74 b.
3. J.Hasanboyev va boshqalar. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. T.: "Noshir", 2011. 218 b.
4. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. T.: «TIU nashriyotmatbaa birlashmasi», 2014. 105-106 b.

**Marg'uba MIRQOSIMOVA,**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*«Din psixologiyasi va pedagogika» kafedrasini mudiri,*

*pedagogika fanlari doktori, professor.*

